



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Jamol Mamadiyorov

*Oriental universiteti “Uzluksiz
ta’lim pedagogikasi” kafedrasida dotsenti*

Iroda Ibrohimova

Oriental universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Globallashuv va axborot oqimining jadallashuvi sharoitida mustaqil fikrlay oladigan, tahlil qilish va asosli qaror qabul qilish kompetensiyalariga ega shaxsni shakllantirish zarurati asoslab beriladi. Adabiyotlar tahlili asosida konstruktivistik pedagogika vakillari — Jean Piaget, Lev Vygotsky va John Dewey qarashlari hamda milliy pedagogika namoyandalarining ilmiy yondashuvlari tahlil qilinadi.*

Maqolada tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning uch bosqichli modeli (chaqiriq – tushunish – mulohaza) metodologik asos sifatida ishlab chiqilib, uning motivatsion, kognitiv-tahliliy va reflektiv komponentlari tizimlashtiriladi. Natijalar maktabgacha ta’lim jarayonida bilimni tayyor shaklda berishdan ko‘ra, muammoli vaziyatlar, savol-javob metodlari va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot yakunida tanqidiy fikrlash texnologiyasini tizimli qo‘llash bolalarning intellektual faolligini oshirishi va ularni keyingi ta’lim bosqichlariga puxta tayyorlashga xizmat qilishi xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, tanqidiy fikrlash, konstruktivistik yondashuv, pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, refleksiya, bola markazli ta’lim, kognitiv rivojlanish*



Kirish: Bugungi globallashuv jarayoni va axborot oqimining misli ko‘rilmagan darajada jadallashuvi jamiyat taraqqiyotiga yangi talablarni qo‘yimoqda. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlay oladigan, tahlil qilish, muammoga tanqidiy yondasha bilish hamda asosli qaror qabul qilish kompetensiyalariga ega shaxslarni shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan ta‘lim tizimining asosiy vazifasi bolalarda erta yoshdan boshlab tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Maktabgacha yosh davri shaxs rivojlanishining eng muhim va sezgir bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning tafakkuri, idrok jarayoni, nutqi va ijtimoiy munosabatlarga kirishish malakalari faol shakllanadi. Mazkur bosqichda yaratilgan pedagogik sharoit kelgusida shaxsning intellektual salohiyati va mustaqil fikrlash darajasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun maktabgacha ta‘lim jarayonida bolalarning faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi emas, balki ularni mustaqil izlanishga, savol qo‘yishga, tahlil qilishga va xulosa chiqarishga o‘rgatish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda eng katta tayanchimiz — bilimli, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy dunyoqarashga ega yoshlarimizdir”. Ushbu fikr ta‘lim jarayonida shaxsning faqat bilim egallashi bilan cheklanib qolmasdan, uning mustaqil va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, axborot hajmining keskin ortishi sharoitida inson tafakkuri faqat ma‘lumotni qabul qilish bilan cheklanmasdan, uni saralash, tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini ham talab etadi. Fikrlash jarayoni, odatda, tayyor yechimga ega bo‘lmagan muammo yoki vaziyat yuzaga kelganda boshlanadi. Bunday sharoitda an‘anaviy, reproduktiv ta‘lim yondashuvi yetarli samara bermaydi. Aksincha, bolani faol subyekt sifatida ko‘radigan, uning mustaqil fikrlash jarayonini qo‘llab-quvvatlaydigan pedagogik model zarur bo‘ladi.

Shu bois bugungi kunda ta‘lim paradigmasini qayta ko‘rib chiqish, pedagog markazli modeldan o‘quvchi (tarbiyalanuvchi) markazli modelga o‘tish dolzarb vazifalardan biridir. Ta‘lim jarayonining markazida tarbiyachi emas, balki faol,



izlanishga moyil va mustaqil fikrlovchi bola turishi kerak. Ana shundagina maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlab tanqidiy tafakkur asoslari shakllanadi va kelgusida jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan shaxs kamol topadi.

Adabiyotlar tahlili: Tanqidiy fikrlash muammosi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan masalalardan biri hisoblanadi. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda tanqidiy fikrlash shaxsning axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash, muqobil qarashlarni solishtirish hamda asosli xulosa chiqarish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuv konstruktivistik ta'lim nazariyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda o'quvchi bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol yaratuvchi subyekt sifatida qaraladi.

Konstruktivistik g'oyalar asoschilaridan biri bo'lgan Jean Piaget bolalar tafakkuri bosqichma-bosqich rivojlanishini asoslab, erta yosh davrida mantiqiy operatsiyalarning shakllanish jarayoni muhim ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bola faol tajriba va muhit bilan o'zaro ta'sir jarayonida bilimni mustaqil ravishda quradi. Shuningdek, Lev Vygotsky ijtimoiy-madaniy yondashuvni ilgari surib, fikrlash jarayoni ijtimoiy muloqot va hamkorlik orqali rivojlanishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ayniqsa, uning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi qarashlari maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirishda pedagogik qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ko'rsatadi.

Amerikalik pedagog olim John Dewey esa ta'lim jarayonida reflektiv fikrlash konsepsiyasini ilgari surgan bo'lib, muammoli vaziyatlarni yaratish orqali bolalarda tahliliy tafakkurni rivojlantirish mumkinligini asoslab bergan. Dewey nazariyasiga ko'ra, fikrlash muammo yuzaga kelganda faollashadi va izlanish jarayoni orqali rivojlanadi. Mazkur yondashuv bugungi zamonaviy ta'lim modelining nazariy poydevorlaridan biri hisoblanadi.

Milliy pedagogika ilmida ham tanqidiy fikrlashni shakllantirish masalasi muhim o'rin tutadi. N.N. Azizxo'jayeva pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tizimli joriy etish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash faolligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. R. Mavlonova boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsining rivojlanishini didaktik tamoyillar asosida tahlil qilib, ta'limning



rivojlantiruvchi xarakterini asoslab beradi. U. Nishonaliyev innovatsion yondashuvlar shaxs tafakkurining faollashuvida muhim omil ekanligini ilmiy jihatdan yoritadi.

So‘nggi yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Tadqiqotchilar maktabgacha yosh davrida savol berish, muammoli vaziyat yaratish, o‘yin texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanish bolalarning tafakkur jarayonini faollashtirishini ta‘kidlaydilar.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni tizimli ravishda shakllantirish mexanizmlari yetarlicha kompleks yoritilmagan. Ko‘pgina tadqiqotlarda tanqidiy fikrlash umumiy pedagogik jarayon doirasida ko‘rib chiqiladi, biroq aynan maktabgacha yosh bosqichining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda metodik model ishlab chiqish masalasi hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mazkur holat ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslarini tizimli ravishda tahlil qilish va metodik yo‘nalishlarini aniqlash zaruratini belgilaydi.

Metodologiya: Mazkur maqola nazariy-metodik xarakterga ega bo‘lib, unda maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim tamoyillari hamda konstruktivistik nazariya metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari orqali maktabgacha ta‘lim jarayonida tanqidiy fikrlashni shakllantirishga oid innovatsion yondashuvlar o‘rganildi. Shuningdek, pedagogik tajriba amaliyotida qo‘llanilayotgan interfaol metodlarning samaradorligi konseptual jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqotda maktabgacha ta‘lim jarayonida turli o‘qitish usullaridan malakali va maqsadli foydalanish bolalarda bilim olishga ichki ehtiyoj va motivatsiyani shakllantirishini nazariy jihatdan asoslashga alohida e‘tibor qaratildi. Zero, o‘quv



motivatsiyasini oshirish, tarbiyalanuvchini faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb etish va bilimni tayyor shaklda emas, balki hamkorlikda egallash tamoyili zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi metodik asos sifatida uch bosqichli model doirasida tahlil qilindi:

1. **“Chaqiriq” bosqichi** – mazkur bosqichda bolaning mavjud bilimlarini faollashtirish, mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otish va kognitiv faollikni rag‘batlantirish nazarda tutiladi. Ushbu bosqichda “Prognozlash”, “To‘g‘ri–noto‘g‘ri hukmlar”, “G‘oyalari savati”, “Bilaman – bilmoqchiman – bilib oldim” kabi usullar qo‘llanilishi metodik jihatdan asoslandi. Mazkur metodlar bolaning shaxsiy tajribasiga tayanish, taxmin qilish va mustaqil fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. **“Tushunish” bosqichi** – bu bosqichda tarbiyalanuvchi yangi axborot bilan mazmunli ishlaydi, uni tahlil qiladi va muhim jihatlarini ajratib oladi. “Qalin va nozik savollar” usuli orqali bolalarning fikrlash chuqurligi rag‘batlantiriladi: nozik savollar faktik javobni talab etsa, qalin savollar sabab-oqibat bog‘lanishlarini ochib berishga undaydi. Bu esa tahliliy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

3. **“Mulohaza (aks ettirish)” bosqichi** – mazkur bosqichda bola o‘zlashtirilgan bilim asosida shaxsiy munosabatini shakllantiradi, o‘z pozitsiyasini ifodalaydi va yangi g‘oyalarni qayta ko‘rib chiqadi. “Klaster” metodi orqali semantik bog‘lanishlarni grafik shaklda ifodalash bolaning tafakkur jarayonini tizimlashtirishga yordam beradi. Refleksiya jarayoni esa bilimni chuqur o‘zlashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

Metodologik jihatdan ushbu yondashuv bilimni tayyor shaklda uzatishdan ko‘ra, uni birgalikda izlash va kashf etish tamoyiliga asoslanadi. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi bolalarni tahlil qilish, taqqoslash, sintez qilish va xulosa chiqarishga o‘rgatish orqali ularning aqliy faoliyatini faollashtiradi.

Konstruktivistik pedagogika vakili Jean Piaget ta’kidlaganidek, ta’limning asosiy vazifasi tayyor bilim berish emas, balki fikrlaydigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Mazkur metodologik yondashuv aynan shu g‘oyaga tayanib, maktabgacha



yoshdagi bolalarda mustaqil va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish mexanizmlarini konseptual jihatdan asoslaydi.

Natijalar: Adabiyotlar tahlili va metodologik yondashuvlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Mazkur model ta'lim jarayonini uch bosqichli texnologik tizim asosida tashkil etishni nazarda tutadi va bolalarning kognitiv faolligini bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni quyidagi tarkibiy komponentlardan iborat bo'lishi zarur:

1. **Motivatsion komponent** – bolaning mavzuga nisbatan qiziqishini uyg'otish, savol berishga undash va muammoli vaziyat orqali ichki ehtiyojni shakllantirish. "Chaqiriq" bosqichida qo'llanilgan metodlar bolalarda bilishga bo'lgan tabiiy intilishni faollashtiradi.

2. **Kognitiv-tahliliy komponent** – axborotni qabul qilish, tahlil qilish, taqqoslash va mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash jarayonlarini o'z ichiga oladi. "Qalin va nozik savollar" usuli bolalarda sabab-oqibat munosabatlarini tushunish va fikrni asoslash ko'nikmasini shakllantirishini ko'rsatdi.

3. **Refleksiv komponent** – o'zlashtirilgan bilim asosida shaxsiy munosabat bildirish, xulosa chiqarish va o'z fikrini himoya qilishni ta'minlaydi. "Klaster" va aks ettirish metodlari orqali bolalarda fikrni tizimlashtirish va umumlashtirish malakalari rivojlanadi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, bilimni tayyor shaklda berishdan ko'ra, uni muammoli vaziyatlar, savol-javob va hamkorlikdagi faoliyat orqali egallash samaraliroq hisoblanadi. Ushbu yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarda:

- mustaqil fikr bildirish;
- taxmin qilish va prognozlash;
- dalillarga asoslanish;
- muqobil javoblarni ko'rib chiqish;
- xulosa chiqarish

kabi intellektual ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.



Shuningdek, ishlab chiqilgan model maktabgacha ta'lim jarayonini pedagog markazli tizimdan bola markazli tizimga o'tkazish imkonini beradi. Bu esa tarbiyalanuvchining passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanishini ta'minlaydi.

Nazariy tahlil asosida aniqlanishicha, tanqidiy fikrlash texnologiyasini tizimli qo'llash maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy faoliyatini faollashtiradi, ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi hamda kelgusida murakkab muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasini bosqichma-bosqich va maqsadli qo'llash shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim pedagogik shartlardan biri ekanligi asoslab berildi.

Xulosa: Mazkur tadqiqot doirasida maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi nazariy jihatdan asoslab berildi. Globallashuv va axborot oqimining jadallashuvi sharoitida bolalarni tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki mustaqil fikrlovchi, tahlil qila oladigan va muammoga ongli yondasha biladigan shaxs sifatida shakllantirish zarurati ortib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili hamda metodologik yondashuvlar asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning uch bosqichli modeli (chaqiriq – tushunish – mulohaza) maktabgacha ta'lim jarayonida samarali pedagogik mexanizm sifatida asoslandi. Ushbu model motivatsion, kognitiv-tahliliy va refleksiv komponentlarning uzviy bog'liqligiga tayangan holda bolalarning aqliy faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bilimni tayyor shaklda uzatishdan ko'ra, muammoli vaziyatlar yaratish, savol-javob metodlaridan foydalanish va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish bolalarda mustaqil fikrlash, dalillash, taqqoslash hamda xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tanqidiy fikrlash texnologiyasini tizimli qo'llash maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual faollikni oshiradi va ularni keyingi ta'lim bosqichlariga puxta tayyorlaydi.



Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion metodlardan maqsadli va izchil foydalanish shaxsning intellektual salohiyatini shakllantirishning muhim pedagogik sharti ekanligi xulosa qilindi. Kelgusida mazkur yo'nalishda metodik tavsiyalarni amaliyotga keng joriy etish hamda model samaradorligini empirik jihatdan tekshirish istiqbolli tadqiqot yo'nalishi sifatida belgilanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2006. – 192 b.
2. Mavlonova R., To'xtaxodjayeva A., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 320 b.
3. Nishonaliyev U.N. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 248 b.
4. Qodirov B.R. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2014. – 256 b.
5. Sharipov Sh.S. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish omillari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 180 b.